

Ona Tili Darslarida O‘Quvchilarining Nutqiy Ko‘Nikmalari Va Mustaqil Fikrlash Salohiyatini O‘Stirish

Erkinova Marjona¹

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari, didaktik yondashuvlar va metodik tavsiyalar yoritiladi. Shuningdek, mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlar tahlili hamda zamonaviy dars jarayonida qo‘llanilayotgan innovatsion metodlar haqida fikr yuritiladi

Kalit so‘zlar: ona tili, mustaqil fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, tanqidiy fikrlash, metodika, interaktiv yondashuv

Kirish

Bugungi kunda ta’lim jarayonida asosiy e’tibor o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol va mustaqil fikrlovchi shaxsga aylantirishga qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda bu maqsadga erishishning ilk bosqichi — ona tili darslaridir. Zero, til — tafakkur ko‘zgusi. O‘quvchi o‘z fikrini grammatik me’yorlar asosida ifoda eta olishni o‘rganar ekan, unda mustaqil fikrlashga turtki beruvchi asosiy vosita aynan ona tili hisoblanadi. Taniqli olim N.A.Muslimovning ta’kidlashicha, mashg‘ulotning muvaffaqiyatli o‘tishining 80 foizi o‘quv jarayonini to‘g‘ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog‘liq hisoblanadi. Shunday ekan darsda nafaqat kreativ va interaktiv metodlarni qo‘llash , balki uni to‘g‘ri tashkillash ham muhim sanaladi . Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolalarda shaxsiy fikr va dunyoqarashning shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslari bu jarayonda katta o‘rin tutadi. “Til bor joyda tafakkur bor” degan hikmat bejiz aytilmagan. Til orqali fikr bildiriladi, fikr orqali esa shaxs yetishadi.

Prezident I.A. Karimov ta’kidlaganidek: “Yangi avlodni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy dunyoni anglaydigan insonlar etib tarbiyalash — eng oliy vazifamizdir.” (Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch, 2008).

Asosiy qism

Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mayjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergen. Keng qo‘llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so‘rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “Bo‘g‘inlar zanjiri”, “BBB” metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta’minlab, o‘quvchilarining bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili darslarida ham yuqorida sanab o‘tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo‘q”, “Ta’rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino”, “Beshinchisi (oltinchisi, yettingchisi ...) ortiqcha”, “Sirli sandiqcha metodi”, “Harfni his qilish” metodlari kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin vaqtida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o‘quvchida ishonch, qat’iyat va mas’uliyat kabi turli xil abstrakt tushunchalar shakllanadi.



Mustaqil fikrlash nima va nima uchun zarur?

Mustaqil fikrlash — bu o‘quvchining berilgan axborot asosida o‘z fikrini ifoda eta olishi, muammoga individual yondashuvi va mantiqiy fikrlash qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun bu ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning keyingi sinflardagi ta’lim sifati va hayotiy faoliyatiga zamin yaratadi.

Ona tili darslarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish usullari:

1. Savol-javob va erkin fikr bildirish: Har bir mavzudan keyin o‘quvchilarga ochiq savollar berish, "Sen qanday o‘ylaysan?", "Nima sababdan bunday bo‘lishi mumkin?" kabi savollar orqali ularni mustaqil fikr yuritishga undash. O‘quvchilarga ochiq yakunli savollar beriladi:

Misol: "Sen o‘sha voqeada qahramon o‘rnida bo‘lganingda nima qilarding?"

Bu savol orqali bola o‘z fikrini bildirishga, sabablashga va tanqidiy baholashga o‘rganadi.

2. Matn ustida ishlashda tahliliy yondashuv: Matnni o‘qigach, qahramonlarga baho berish, voqealarga nisbatan o‘z munosabatini bildirish topshiriqlari mustaqil fikrlashga asos bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar vaqtinchaga o‘qituvchi rolini ijro etishadi. Matn o‘qib bo‘lingach, quyidagi topshiriq beriladi:

Misol: "Agar sen quyosh bo‘lganingda, bolalarga qanday yordam bergen bo‘larding?"

Bu usul kreativlik va empatiya uyg‘otadi.

3. Taqdimot va mini-insho yozish: "Mening orzum", "Yaxshi inson qanday bo‘ladi?" kabi mavzularda qisqa matnlar yozdirish orqali o‘quvchilarning o‘z fikrini yozma nutqda ifodalash ko‘nikmasi shakllanadi. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarga qisqa matn yozish topshiriladi:

Misol: "Mening sevimli hayvonim" yoki "Qanday do‘st bo‘lish kerak?"

Bu yozma nutqni va o‘z fikrini yozma ifodalashni rivojlantiradi.

4. Rollar orqali fikrlash: Matnlar asosida rolli o‘yinlar tashkil etish, o‘quvchini voqeа ichiga jalb etish orqali u o‘z fikrini harakatda bildiradi. Matndagi rollar taqsimlanadi, har bir o‘quvchi o‘z personajini jonlantiradi.

Misol: "Oq ilon haqida ertak"dan sahna tayyorlash.

Bunda bolalar jonli fikrlashga, harakat orqali anglashga o‘rganadi.

5. Muammo asosidagi topshiriqlar: Masalan, "Agar sen quyosh bo‘lganingda..." kabi topshiriqlar orqali bolada kreativ va erkin fikrlash shakllanadi. O‘zini quyoshga o‘xshatadi, keng fikrlab aytib beradi va natijada bu orqali bilish jarayonlaridan tasavvur, xotira, xayol va idrok kabilalar rivojlanadi. Har bir o‘quvchi bir fikr bildiradi, keyin guruhda bahs yuritiladi.

Misol: "Kampir nega qushni ozod qildi?"

Bu faol muloqotga, sabablashga o‘rgatadi.

O‘qituvchining roli

O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi yo‘lboshchi bo‘lishi lozim. Bu jarayonda individual yondashuv, ruhiy qo‘llab-quvvatlash va ijodiy muhit yaratish muhim. O‘qituvchining roli — yo‘lboshchi va motivator

Mustaqil fikrlashni shakllantirishda o‘qituvchi klassik bilim beruvchidan ko‘ra yo‘lboshchi, rag‘batlantiruvchi, va muvofiqlashtiruvchi rolini bajaradi.

Vygotskiy fikricha: "Yaqin taraqqiyot zonasi – bu o‘qituvchining rahbarligida bola hali o‘zi bajara olmaydigan, ammo yordam bilan bajara oladigan faoliyat zonasi." (Vygotskiy L.S., 1991).

O‘qituvchi quyidagilarga e’tibor qaratishi zarur:

O‘quvchi fikrini hukm qilmaslik, uni quvvatlash;



Savollar orqali o‘ylashga undash;

Fikr bildirgan o‘quvchini rag‘batlantirish (hatto noaniq bo‘lsa ham);

Individual yondashuv orqali har bir bolaning dunyoqarashini rivojlantirish;

Darsda “fikr almashuv muhiti”ni shakllantirish.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish — bu zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, ona tili fanining boy imkoniyatlaridan foydalanib, har bir o‘quvchining fikrini erkin ifodalashiga sharoit yaratish, ularni faollikka, mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish ta’lim sifatini oshiradi. Fikr bildiradigan, tahlil qiladigan, muloqotda erkin bo‘lgan yosh avlod esa kelajakda jamiyatning faol ishtirokchisiga aylanishi shubhasizdir. O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O‘quvchilarning sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsiyal jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o‘rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to‘g‘ri qo‘llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko‘p qo‘llansa, o‘quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bøladi. Mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalash — bu zamon talabi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 102–108.
2. Ahmedova M. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 25–32.
3. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 1956. – P. 45–52.
4. Mamarasulova M. Boshlang‘ich ta’limda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali usullari. // Pedagogika va psixologiya, 2023-yil, 4-son. – B. 15–18.
5. Qurbonov A., Jo‘rayev U. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – B. 88–95.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi. Ona tili fanidan metodik tavsiyalar (1–4-sinflar uchun). – Toshkent, 2022. – B. 12–16.
7. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991. – B. 60–65.
8. Yo‘ldoshev N., G‘afforova M. Ona tili ta’limi metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2019. – B. 40–48.

